



O'QUVCHILARDA LISONIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH YUZASIDAN METODIK TAVSIYALAR

Supiyeva B.A.

Renessans ta'lim universiteti Pedagogika fanlari va psixologiya fanlari kafedrasida dotsenti

Tayanch so'zlar: ona tili darslari, nutqiy tajriba, nutqiy kompetensiya, davlat tili, lingvistik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, intellektual o'yin.

Ключевые слова: уроки родного языка, опыт говорения, речевая компетентность, речевая компетентность, государственный язык, языковая компетентность, коммуникативная компетентность, интеллектуальная игра.

Key words: mother tongue lessons, speaking experience, speech competence, state language, linguistic competence, communicative competence, intellectual game.

Резюме:

Ushbu maqolada darsliklaridagi matnlar tahlili asosida o'quvchilarda lisoniy kompetensiyani shakllantirish haqida yoritilgan. darsliklaridagi matnlar tahlili asosida o'quvchilarda lisoniy kompetensiyani shakllantirish yuzasidan metodik tavsiyalar yoritilgan.

Резюме:

В данной статье описывается формирование лингвистической компетентности учащихся на основе анализа текстов учебников. На основе анализа текстов учебников выделены методические рекомендации по формированию языковой компетенции учащихся.

Summary:

This article describes the formation of students' linguistic competence based on the analysis of texts in textbooks. based on the analysis of the texts in the textbooks, methodical recommendations on the formation of students' linguistic competence are highlighted.

Bolalarning barcha fan va san'at sohalariidagi iqtidorlarini aniqlash maqsadida darsdan tashqari faoliyatda quyidagi shakllardan keng foydalanish fanga oid kompetensiyaviy bilimlarning chuqur singdirilishida poydevor bo'ladi: bolalar ijodiyoti ko'rgazmalari, ijodiy ko'rik tanlovlar, fanga oid bellashuvlarni o'tkazish va boshqalar.

Mamlaka'limizda olib borilayotgan ta'lim tizimining odil va demokratiyalashtirilishi o'quv jarayoniga o'zgacha talab va o'zgacha pedagogik munosabatlarni kashf etadi. Bujarayon mazmun - mohiyatidan awalgidan tubdan farqlanadi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kichik yoshdagi (7-11 yoshlar) maktab o'quvchilarini diqqatini bir nuqtaga jamlash bir muncha qiyin hisoblanadi. Ularning diqqatini 6-7 daqiqagacha jamlash mumkin. Undan so'ng o'quvchilar diqqati o'z-o'zidan bo'linadi. Bu vaqt davomida o'qituvchi o'quvchilarga ma'lum bilim, ko'nikma va malakalami berishi hamda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishi lozim.

Misol tariqasida diqqatni jamlovchi mashqdan namuna keltiramiz:

1. O'quvchiga bir to'da yovvoyi jonivorlarning rasmini bir vaqtda ko'rsatamiz.
2. Bularning ichida qaysilari qushlar, qaysilari yirtqichlar, qaysilari sudralib yuruvchilar ekanligini ajratib berishini so'raymiz.
3. Keyin esa bu jonivorlarning qayerda yashashini, nima bilan oziqlanishini ham so'rab, o'quvchi tafakkuri rivojlanishi uchun ham turtki beramiz.

Bunday mashqdan so'ng o'quvchining diqqati bir nuqtaga to'planadi va fanga kirib borishi, mavzuni tushunishi yengillashadi, unda kompetensiya elementlarini shakllantirish osonlashadi.

O'quvchilarning kompetensiyaviy bilimlarini shakllantirish uchun so'z boyligi ustida alohida ishlash, lug'at boyligini oshirishimiz kerak. So'z va iboralar tilning ma'no ifodalaydigan asosiy birligidir. Bu til birliklari aniq predmetlarni, mavhum tushunchalarni, individning emotsiya-his-hayajonini bildiradi. Tilda mavjud borgan barcha so'z va iboralarning yig'indisi tilning lug'at tarkibini tashkil etadi. Shu ma'noda leksikologiya o'quvchilar lug'at boyligini oshirishning metodik asosi hisoblanadi.

Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, mazmunga mos so'z va iboralarning ma'lum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi. Kishining lug'at boyligi qanchalik boy va rivojlangan boisa, uning nutqi ham shunchalik boy boiadi. U o'z fikrini aniq, ravshan, ifodali bayon etishga keng imkoniyat yaratadi. Shuning uchun so'z boyligi, uning xilma-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning muhim shartidir.

Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, mazmunga mos so'z va so'z birikmalarining ma'lum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi. Kishining lug'ati qanchalik boy va rivojlangan boisa, uning nutqi ham shunchalik boy bo'ladi. Fikrini aniq va ifodali bayon etishga keng imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun lug'atning boyligi, xilma-xilligi, harakatchanligi nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning muhim sharti hisoblanadi. O'quvchi lug'atining boyishiga, birinchi navbatda, uni o'rab olgan muhit, tabiat, kishilarning hayoti, o'qish faoliyati, kattalar va tengdoshlari bilan boigan muloqatlari asosiy manba vazifasini bajaradi. Bola tabiat va insonlar bilan munosabatda bo'lishi natijasida so'z, ibora tasviriy ifoda, maqol, hikmatli so'zlarni o'rganadi, ularni o'z so'zlariga aylantiradi. Badiiy asarlar o'quvchilar lug'atini va nutqini boyitishda eng ishonarli



manba hisoblanadi. O'qish darslarida badiiy asarlar bilan tanishish, tahlil qilish jarayonida o'quvchilar lug'ati ma'lum mavzular bo'yicha ham boyib boradi.

Masalan, yil fasllariga oid mavzular bilan tanishish jarayonida tabiatdagi o'zgarishlar, qushlar, jonivorlar, hayvonot olami, dov-daraxtlar, maysa - g'iyohlar bilan bog'liq tushunchalari shakllantirilsa, ma'naviyat, yaxshilik va yomonlik, do'stlik mavzularidagi asarlarni o'rganish orqali insoniy munosabatlar, axloq-odob yuzasidan muayyan xulosalarga keladi. Matnni o'qish jarayonida so'zning ma'nosi tushuntirilmaydi. Agar unga zarurat sezilsa, o'quvchilar diqqati matn mazmunidan chalg'itilmay, qisqa izoh berib o'ib ketiladi. Ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlar matn o'qilgandan keyin tushuntiriladi. Chunki ularning ma'nosi matn mazmunidan yaxshi tushuniladi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarning o'rganishi ko'zda tutilgan bilimlarni egallashlarida, ularni amaliyotda qo'llashlarida tilning lug'at boyligini o'zlashtirishlari va uni o'z mulklariga aylantirishlari muhimdir.

Lug'at ustida ishlash uchun maxsus dars ajratilmaydi. U barcha predmetlarni o'rganishda, asosan, ona tili va o'qish darslarida darslik materiallarini o'rgatish bilan bog'liq holda olib boriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga leksik bilimlar berish faqat ona tili darslari bilan chegaralanib qolmasdan, o'qish darslari davomida ham o'rgatib boriladi. Ayniqsa, tilning lug'at tarkibini, undagi eskirgan va yangi paydo bo'lgan so'zlarni, shevaga xos so'zlarni, kasb - hunarga oid so'zlarni, mscha - baynalminal so'zlarni o'rgatishda o'qish kitobida berilgan matnlar tahlili, har bir darsda o'tkaziladigan lug'at ishlari katta ahamiyatga ega. Bunda amaliy ishlar orqali nazariy bilimlar hosil qilib boriladi.

Maktabda o'quv predmeti sifatida tilni o'rganish tizimi tilning barcha tomonlarini, ya'ni fonetikasi, leksikasi, so'z yaslishi va grammatikasi (morfologiya va sintaksis)ning o'zaro ichki bog'lanishlariga asoslanadi.

Tilning barcha tomonlari o'zaro bog'lanishining ko'p qirraliligi va murakkabligi, ularning dialektik birligi, avvalo, uning aloqa vositasidagi vazifasida namoyon bo'ladi. Aloqa vositaligi tilning muhim xususiyati, asosidir. Bu vazifani tilning har bir qismi boshqa qismlar bilan o'zaro bog'lanishda bajaradi. Har bir so'zga xos bo'lgan tovush shakli kishilarga aloqa uchun imkoniyat yaratadi. Ammo so'zning tovush qurilishi, shakli mazmunsiz aqlga to'g'ri kelmaganidek, o'zicha yashamaydi. Istalgan tovushlar yig'indisi emas, balki ma'lum ma'no bildiradigan tovushlar yig'indisigina aloqa maqsadiga xizmat qilishi mumkin.

Ma'lumki, ma'no bildiradigan tovushlar yig'indisi so'zdir. Tilning lug'at boyligi, leksikasi fikr ifodalash uchun xizmat qiladigan o'ziga xos qurilish materialidir.

Tilning lug'ati qanchalik boy bo'lsa ham grammatikasiz u o'lik hisoblanadi. Tilning lug'at boyligi o'z-o'zicha aloqa vazifasini bajarmaydi. Aloqa maqsadida

xizmat qilish uchun lug'at boyligidagi so'zlar bir-biri bilan grammatik jihatdan o'zaro bog'lanib, gap tuziladi. Mana shu tuzilgan gap orqali fikr ifodalanadi.

Tilning har bir tomonining xususiyati undagi til birliklarining o'ziga xosligida namoyon bo'ladi. Fonetika uchun bunday til birligi nutq tovushlari, fonemalar; leksikologiya uchun ma'nosi va qo'llanishi nuqtai nazardan so'z; grammatika uchun so'z shakllari, shuningdek, so'z birikmasi va gap; so'z yasalishi uchun morfema, tuzilishi va yasalishi jihatdan so'z hisoblanadi.

So'z, so'z birikmasi va gap grammatik tomondan ko'pgina xususiyatlarga ega. So'zning o'z morfemik qurilishi, o'zining so'z yasalish turi, biror grammatik kategoriyasi (shaxs, son, egalik, kelishik va boshq.), ma'lum sintaktik vazifasi bor. So'z birikmasi ham so'z kabi so'z o'zgarishi (ko'proq ergash so'z o'zgaradi) shakllariga ega. Gap o'z qurilishiga ko'ra so'zdan sifat jihatdan farqlanadi: so'z o'zi alohida kelganda mustaqil ma'no anglatmaydigan morfemalardan tuziladi, gapni tashkil etuvchi qismlar esa gapdan tashqarida ham mustaqil leksik ma'no bildiradi, gap tarkibida esa uning ma'nosi yana oydinlashadi. Gap va so'z birikmasi "qurilish material" sifatida xilma-xil tuzilgan so'zdan foydalanadi. Gap uchun qator sintaktik xususiyatlar, shuningdek, tugallangan ohang ham xarakterlidir.

Shunday qilib, tilning har bir jihatining o'ziga xos xususiyatini ko'rib chiqishning o'zi ularning o'zaro munosabatini, bir-biriga o'tishining murakkabligini ta'kidlaydi. Tilshunoslik fani bo'limlari o'rtasidagi munosabatlar ham shunga o'xshash murakkabdir.

Fonetika, leksikologiya bilan ham, grammatika bilan ham bog'lanadi. Tovushlar, fonemalar, bo'g'inlar tilda alohida emas, balki ma'lum leksik ma'no bildiradigan so'z tarkibida yashaydi.

Fonetikaning sintaksis bilan bog'lanishi, xususan, har bir gapda ma'lum ohangda bo'lishida ko'rinadi. Grammatik va semantik jihatdan bog'langan so'zlar majmuasi ma'lum ohangga ega bo'lsagina gap hisoblanadi. Bunda gapning mazmuni so'zlovchining gapda ifodalangan ohangiga bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, ohang gapda so'z tartibi, yordamchi so'zlardan foydalanish, so'z o'zgartishlar bilan birga gap tuzish usullaridan biri sifatida xizmat qiladi.

Leksikologiya so'z yasalishi bilan jips bog'lanadi: birinchidan, tilning lug'at tarkibi, asosan, tilda mavjud bo'lgan so'zlardan yangi so'zlar yasalishi hisobiga to'ldirilib, boyib boradi; ikkinchidan, yasalgan so'zlarning leksik ma'nosi yasama negizning moddiy ma'nosiga asoslanadi.

Morfologiya leksikologiya va so'z yasalishi bilan jips bog'langan. Morfologiya, asosan, so'zning grammatik xususiyatlarini o'rganadi. So'zning grammatik ma'nosi doimo leksik ma'nosi bilan birga namoyon bo'ladi, har bir so'z, bir tomondan, shu so'zga tegishli bo'lgan ma'lum o'ziga xos leksik-grammatik guruhning belgilarini bildiradi, ikkinchi tomondan, u so'zning o'z leksik ma'nosi



bo'ladi. So'zdagi mana shu umumiy birlik morfologiyada, leksikadan ajralmagan holda, leksika zaminida o'rganiladi.

So'z uchun muqarrar morfemik tarkibi xarakterli bo'lib, bunga so'zning leksik ma'nosi va qator grammatik belgilari bog'liq bo'ladi. Yangi so'z qaysi usul bilan yasalmasin, u doim grammatik shakllanadi va o'zining leksik ma'nosiga ega bo'ladi. Har bir so'z turkumida so'z yasalishining xarakterli xususiyatlarni mavjud. So'zning morfemik tarkibi va yangi so'z yasaliş usullari tilshunoslik fanining so'z yasalişini bo'limida, grammatika va leksikologiyadan ajratilmagan holda o'rganiladi.

Morfologiya va sintaksis har tomonlama o'zaro bog'lanadi. Morfologiyada, asosan, so'zlarning grammatik ma'nosi va uni ifodalash shakllari o'rganiladi; sintaksisda so'zlarni o'zaro bog'lanib so'z birikmasi va gap hosil qilish usullari, shuningdek, gap turlari, ularning mazmuni va ishlatilishi o'rganiladi. So'z morfologiyada ham, sintaksisda ham o'rganiladi, ammo o'rganish ob'ekti har xil bo'ladi. Sintaksisning o'rganish ob'ekti gapdir; unda so'z gap yoki so'z birikmasida boshqa so'zlar bilan ma'no va grammatik jihatdan bog'langan holda o'rganiladi. Morfologiyada so'z gapdan tashqarida ham o'rganilishi mumkin; so'zga muayyan leksik-grammatik guruhga kiradigan so'zlar bilan o'zaro munosabati nuqtai nazaridan qaraladi. Morfologiya va sintaksisda so'zga bunday har xil yondashish ularning bir-biriga bog'liqligini inkor etmaydi, aksincha, ular so'z va gapning o'zida yashaydi. So'zlar so'z o'zgarish tizimiga ega bo'lgani tufayli gaplar aloqa vazifasini bajaradi. SHakl yasalişini va so'z yasalişini morfologiyada o'rganiladi, ammo gapda tatbiq etiladi, so'zlarning o'zaro bog'lanish qoidalarini o'rganish esa sintaksis sohasiga taalluqlidir. So'z birikmasi tarkibidagi so'zlarning o'zaro bog'lanish usulini aniqlashda shu so'z birikmasiga kirgan so'z turkumining morfologik xususiyatlari hisobga olinadi. Bular morfologiya va sintaksisda bir-biri bilan bog'liq holda o'rganiladigan til hodisalarining ayrimlaridir. Bu aniq misollar morfologiya va sintaksis bir-birini taqozo qilsa ham, grammatikaning mustaqil bo'limi ekanini ta'kidlash uchun yetarli.

Keltirilgan fikrlar boshlang'ich sinf o'quvchilariga predmetlararo ichki bog'lanishni hisobga olgan holda ona tilini o'rgatish metodikasini belgilaydi.

1. Tilning barcha (leksik, fonetik, so'z yasash, grammatik) tomonlari o'zaro bog'liqligini va ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanini hisobga olib, o'quvchilar tilni ongli o'zlashtirishlari uchun tilning har bir tomoni xususiyatlarini va ular o'rtasidagi bog'lanishni o'zlashtirishlari zarur.

1-4-sinflarda ona tilini o'rganish tizimi fonetika, leksikologiya, so'z yasalişini va grammatikaning o'zaro bog'lanishi mohiyatini hisobga olgan holda tuziladi. Bu hol dastur materiallarini o'rganish tartibini belgilashda ham, ta'lim mazmunini (dastur bo'limlari o'rtasidagi uzviy bog'lanishni) aniqlashda ham hisobga olinadi.

2. Tilning barcha jihatlarining bir-biriga ta'siri uning aloqa quroli vazifasida namoyon bo'ladi. Tilning asosiy birligi sifatida aloqa maqsadida so'zni to'g'ri talaffuz qilish yoki yozish, shu tilda so'zlashuvchi barcha kishilarga bir xilda tushunarli bo'lishi, gapda grammatik jihatdan to'g'ri tuzilishi kerak.

Shularni hisobga olib, kichik yoshdagi o'quvchilar tilning talaffuzi, grafik, leksik, so'z yasalishi va grammatik tomonlarining o'zaro bog'lanishi mohiyatini tushinishlari uchun dastur materialini o'rganishda tilning aloqa vazifasi yetakchi ekani nazarda tutiladi, ya'ni kishilar bilan aloqa jarayonida tilning barcha tomonlari birgalikda foydalanilishi hisobga olinadi. SHu maqsadda tilning fonetik tomonini o'rganishda so'zning ma'no va talaffuz jihatdan birlik hosil qilishini, tovushning so'z ma'nosini farqlashdagi o'rmini tushuntirishga katta ahamiyat qaratiladi. "So'z" mavzusi o'tilayotganda o'quvchilar tomonidan so'zning talaffuzi, leksik ma'nosi, morfologik tarkibi, grammatik belgilari, yasalishi, nutqda ishlatilishi va yozilishini yaxlit tushunishga asosiy diqqat qaratiladi. Bunda o'qituvchi so'zning nom bo'lib xizmat qilishini ham, morfemik tarkibi va leksik ma'nosining bir-biriga ta'sirini ham o'quvchilarning tushunib olishlariga erishishi lozim.

"Gap" mavzusini o'rganish vaqtida esa ishning asosiy yo'nalishi nutqda gapning til birligi sifatidagi vazifasini tushuntirish va o'quvchilarda og'zaki va yozma nutqlarida gapdan oson foydalanish ko'nikmasini shakllantirish hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabda tilning barcha tomonlarini bir-biri bilan bog'liq holda o'rganish ona tilini o'rgatishning yetakchi metodik tamoyili hisoblanadi. Buni amalga oshirish til o'suvchan, bir-biriga o'zaro ta'sir etadigan tomonlari mavjud bo'lgan murakkab hodisa ekanini tushuntirishda ilmiy asos hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Temirov D.Sh. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ayrim masalalari // "Boshlang'ich ta'lim mazmunini modernizatsiyalash strategiyasi: nazariya va amaliyot". - O'zPFITI 2015 yil 6 may - 110-111 b.
2. Turdiyev N.Sh., Sultonova Q.A., Akbarova S.N.. O'quvchilarda tayanch va predmetga oid kompetentsiyalarni shakllantirishda qo'llaniladigan metodlar, usullar va pedagogik texnologiyalar haqida. - "Ta'lim texnologiyalari" jurnali. - 2015. № 5, 99-104 b.
3. Ирисбаева Ё. У. Связная речь – главное достижение в речевом развитии детей дошкольного возраста // Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 695-698.
4. Musaev A. Technologies for organizing independent education of students in a digital educational environment // International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 1. – С. 146-149.
5. Irisbayeva Y. Future Educators Professional Readiness to Interact with Preschool Children // Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.
6. 13. Irisbayeva Y. Professional readiness of future educators to interact with children of preschool age // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 7.